

Date: 9th August-2026

SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Sobirjonova Omina

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs tushunchasining mazmuni, uning ijtimoiy va psixologik mohiyati hamda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: shaxs, shaxs rivojlanishi, irsiyat, muhit, tarbiya, ijtimoiylashuv, psixologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание понятия личности, ее социальная и психологическая сущность, а также анализируются основные факторы, влияющие на формирование личности. Кроме того, с научной точки зрения раскрывается роль наследственности, среды и воспитания в развитии личности.

Ключевые слова: личность, развитие личности, наследственность, среда, воспитание, социализация, психология.

Abstract: This article examines the concept of personality, its social and psychological essence, and analyzes the main factors influencing personality formation. In addition, the role of heredity, environment, and education in personality development is discussed from a scientific perspective.

Keywords: personality, personality development, heredity, environment, education, socialization, psychology.

Shaxs tushunchasi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi, mazkur tushuncha insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy mavjudotga aylanishi, jamiyat bilan o'zaro munosabatlari hamda ongli faoliyati natijasida shakllanadigan sifatlarini ifodalaydi. Psixologiyada shaxs insonning ijtimoiy tajribani egallashi, muayyan qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi va faoliyat jarayonida o'zini namoyon etishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda **"indivind"**, **"shaxs"** va **"individuallik"** tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lsa-da, mazmun jihatidan farqlanadi. Indivind biologik mavjudot sifatida insonni anglatadi, individuallik esa insonning temperamenti, xarakteri, qobiliyatlari, qiziqishlari va boshqa psixologik xususiyatlarining betakror uyg'unligini ifodalaydi. Shaxs esa jamiyatda yashash, ijtimoiy tajribani egallash va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish orqali shakllanadigan ijtimoiy sifatlar majmuasidir. A.N.Leontevning **faoliyat nazariyasiga** ko'ra, shaxsning shakllanishida asosiy omil faoliyat hisoblanadi, inson aynan faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, bilim va ko'nikmalarni egallaydi hamda o'zini shaxs sifatida namoyon etadi, demak shaxsning rivojlanishi faoliyatdan tashqarida sodir bo'lmaydi. L.S.Vigotskiyning **madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi** shaxs taraqqiyotini jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, insonning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhitda, odamlar bilan muloqot orqali yuz beradi, keyinchalik esa ichki psixik jarayonga



Date: 9th August-2026



aylanadi va bu jarayon **interpsixik** holatdan **intrapsixik** holatga o'tish deb izohlanadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya shaxs rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. A.V.Petrovskiy shaxsni **ijtimoiy munosabatlar subyekt**i sifatida talqin qiladi, uning fikriga ko'ra, inson tug'ilgan paytda faqat individ hisoblanadi, shaxs maqomini esa jamiyatdagi faol ishtiroki, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishi va ijtimoiy tajribani egallashi orqali qo'lga kiritadi. Shaxsning mohiyati uning boshqa insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Amerikalik psixolog **Gordon Allport** shaxsni insonning xulq-atvorini belgilovchi dinamik psixofiziologik tizim sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, shaxs tug'ma va orttirilgan xususiyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi hamda har bir insonning betakrorligini ifodalaydi. Shaxsning shakllanishi biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuz beradi va biologik omillarga irsiyat, nerv tizimining xususiyatlari va temperament kirsa, ijtimoiy omillarga oila, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muhit, muloqot va mehnat faoliyati kiradi. Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishi ushbu omillarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi asosida izohlanadi. Pedagogik nuqtai nazardan shaxsning kamol topishida tarbiya yetakchi omil sifatida qaraladi, tarbiya orqali inson jamiyatning axloqiy me'yorlari, qadriyatlari va madaniy tajribasini o'zlashtiradi. Ta'lim esa shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirib, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantiradi. Sotsiologik yondashuvlarda shaxs jamiyatning faol a'zosi sifatida talqin qilinadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi oilada boshlanib, maktab, oliy ta'lim muassasalari, mehnat jamoasi va boshqa ijtimoiy institutlar orqali davom etadi. Mazkur jarayon davomida inson ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, huquq va majburiyatlarini anglaydi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlanadi. Shaxsning muhim psixologik xususiyatlari qatoriga motivatsiya, ehtiyojlar, qiziqishlar, dunyoqarash, e'tiqod, xarakter, qobiliyat va o'zini o'zi anglash kiradi va ushbu komponentlar o'zaro bog'liq holda insonning xulq-atvorini boshqaradi va uning hayotiy pozitsiyasini belgilaydi. Ayniqsa, motivatsiya inson faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxs rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida shaxsning intellektual salohiyati, kreativ fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, innovatsion g'oyalarga ega va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilsak, shaxs insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy mavjudotga aylanishi natijasida shakllanadigan murakkab psixologik va ijtimoiy tizim hisoblanadi. Uning rivojlanishi biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, ta'lim, tarbiya va shaxsning faol ishtiroki ta'sirida amalga oshadi. Psixologik nazariyalar, xususan L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, A.V. Petrovskiy va G. Allport qarashlari shaxsning mohiyatini turli jihatlaridan yoritib beradi hamda uning shakllanishida faoliyat, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shaxsning barkamol rivojlanishi nafaqat individual taraqqiyot, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim omildir. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonida mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, ijodkor va

Date: 9th August-2026

ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rustamov Sh. Sh. Psixologik ta'limotlar tarixi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019.
2. Nazarov A. Psixologik xizmat. – Toshkent: Ideal Press, 2024.
3. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022.
5. Karimova V. M. Psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

